



# QALMOQQIR KARYERI MEHNAT UNUMDORLIGI, SANOAT AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

**Usubaliyeva S.F. Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali magistranti**

**ANNOTATSIYA:** Maqolada Olmaliq kon metallurgiya kombinatiga qarashli Qalmoqqir kon boshqarmasi haqida so`z yuritilgan bo`lib, bunda ushbu karyerning mehnat, ish faoliyati, yurtimiz sanoatidagi ahamiyati va istiqbol yo`llari haqida so`z yuritilgan.

**KALIT SO`ZLAR:** Karyer, vulkanogen, siyenitdiorit, riolitporfir, gipergenez, sharoshkali dalota, ag`darma.

**Qalmoqqir mis koni — "Olmaliq KMK"** Ajning asosiy konlaridan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq shahrining shim.g`arbiy qismiga tutashgan. Qalmoqqir mis koni. Mis porfir tipidagi dunyo bo`yicha eng yirik hisoblangan 10 ta ob`yektlar qatoriga kiradi. Kon cho`kindi, vulkanogen va intruziv jinslar majmuasidan tarkib topgan, ularda magmatik hosilalar ko`proq uchraydi. Konning geologik tuzilishida riolitporfirlar, dolomitlar va ohaktoshlar, andezitdatsitli porfirlar, kvarsli monsonitporfirlar, granodioritporfirlar daykalar, dioritli va diabazli porfiritlar mavjud. Vulkanogen cho`kindi qatlam jinslarini siyenitdiorit qatoridagi asosliroq intruzivlar yorib chiqqan va qisman ular bilan assimilyatsiyalashgan. Asosiy ruda qamrovchi jinslar yirik shtok shaklida mujassamlashgan siyenitdioritlar, dioritlar va riolitporfirlardir.

Kon rudalari 3 texnologik tipga: oksidlangan, aralash (tarkibida ikkilamchi sulfidlar bo`lgan) va birlamchi sulfidlarga bo`linadi. Oksidlangan rudalar murakkab tuzilishi bilan farqlanib, ko`pincha turli qalinlikdagi tik yotuvchi tomir, qatlam, linza va ustun ko`rinishlarda uchraydi. Gipergenez zonasining eng ko`p qalinligi 180 m (o`rtacha 60–65 m), oksidlangan rudalarning o`rtacha qalinligi 20 m, aralash va xalkozinlilarniki 19 m dan iborat. Oksidlangan rudalardagi misning tarkibi — 0,3 dan 3% gacha, ikkilamchi sulfidli boyish zonasida — 0,3 dan 4% gacha.



Qalmoqqir mis konining birlamchi rudalari tarkibida mis — 0,58%, molibden — 0,005 %, oltin — 0,5 g/t, kumush — 3 g/t, oltingugurt 1,5—2%, kamyob elementlar (selen, tellur, reniy, vismut, indiy va boshqalar) mavjud.

Konning markaziy qismi [mis](#) va [temir](#) sulfidlariga boy. [Oltinning](#) taqsimlanishi xalkopiritli minerallashish bilan bog'liq. Rudali shtokverkning kuzatilgan qalinligi 1240 m gacha. U yaxlit uzlusiz tanani tashkil qilib, konning o'rta qismiga kelganda tarmoqlanadi.

Konda metasomatik o'zgargan jinslar keng tarqalgan. Ularda greyzenlashish eruptivli brekchiyalar va qora granitporfirlarning daykalarida mujassamlashgan. Qalmoqqir mis konining kvarsseritsitli metasomatitlari odatdag'i ikkilamchi kvarsitlardan o'zida boy glinozyomli minerallarning (korund, diaspor, andaluzit va boshqalar) deyarli uchramasligi bilan farq qiladi<sup>[11]</sup>.

Karyer qurilishi 1954-yilda boshlanib, 1959-yil 1-iyulda Qalmoqqir konining birinchi navbatini ishga tushirish to'g'risida dalolatnama imzolangan.

Konni dastlabki o'zlashtirish loyihasi Leningradning "Gipruda" instituti tomonidan tuzilgan, so'ngra Qalmoqqir konining loyihasi [Moskva](#) "Giprosvetmet" institutiga topshirilgan va 1960-yilda institut kengaytirish loyihasini ishlab chiqqan.

O'sha paytda yuk tashish uskunasi sifatida [Ural](#) og'ir mashinasozlik zavodining cho'mich hajmi uch kub bo'lган SE 3 ekskavatorlaridan, ag'darmalarga jinslarni tashishda esa yuk ko'tarish qobiliyati uch tonnadan o'n tonnagacha bo'lган [avtomobillaridan](#) foydalanilgan.





## 1-rasm. Qalmoqqir konida ekskavator-avtomobil kompleksining ish jarayoni

Konda 1963-yildan boshlab EKG-8 qoyali [ekskavatorlari](#) ishlagan, ruda va jins bilan og'ir yukli sostavlar tortish o'girligi 150 tonna bo'lgan elektrovozlar yordamida tashilgan. 1965-yil oxiriga kelib, barcha arqon-zarbali burg'ulash uskunalarini VSV-3, BSSH 2M tipidagi sharoshkali burg'ulash uskunalarini bilan almashtirildi. Yetmishinchchi yillarning boshlarida tog'-kon uskunalarining yangilanishi boshlanadi<sup>[2]</sup>.

Karyer yiliga 5-6 m ga chuqurlashmoqda, ish jabhasining oldinga siljish tezligi esa 90-10m. "Qalmoqqir" konining atrofi kichik tepalikli tabiatga ega. Konning eng baland nuqtalarining dominant sathidan balandligi taxminan 200 m. Hududning tabiatini konning yuqori qismini tog 'karyeri tomonidan qazib olish imkoniyatini oldindan belgilab qo'ygan. Konning bu qismi yarim xandaklar bilan ochilgan. Konning hududning ustunlik darajasidan pastda joylashgan qismi +660 m belgisidan boshlab, statsionar tashqi xandaq bilan ochilgan.

Avtomobil transportidan karyerning yuqori gorizontlarida, +760 m va undan yuqori balandlikdagi joylarda, shuningdek, gorizontlarni ochishda kapital va yangi kesmli xandaqlarida foydalaniлади.

Temir yo'l transporti yuklarni temir yo'l ag'darmalariga va rudalarni qayta ishslash zavodiga tashish uchun ishlatiladi.

Konda portlatish quduqlarini burg'ulash SBSH-250 MNA-32 burg'ulash qurilmalari bilan amalga oshiriladi.

Quduqlar diametri 244,5 mm bo'lgan sharoshkali dolotalar bilan burg'ulanadi.

Uskuna quruq va sug'orilgan, monolit va singan jinslarda quduqlarni burg'ulashi mumkin.

Quruq jinslarni burg'ilashda quduqqa havo-suv aralashmasini yetkazib berish orqali nam changni bostirish majburiy bo'lib, chang namlanadi va [atmosfera](#) ifloslanmaydi.

Burg'ulash vositasi - uzunligi 8 m, diametri 203 mm 4 ta shtangadan iborat.

Tog' jinslarini [transport](#) vositalariga yuklash- to'g'ridan-to'g'ri mexanik belkurak tipli siklik ekskavatorlar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirda 4,6 m<sup>3</sup> dan 20 m<sup>3</sup> gacha cho'mich



sig‘imiga ega EKG-20, EKG-15, EKG-12,5, EKG-10, EKG-8I, EKG-6,3, EKG-5U, EKG-5A, EKG-4,6 rusumli ekskavatorlardan foydalanilmoqda.

Ustki qatlam jinslari va rudalar keng o‘lchovli elektrlashtirilgan temir yo‘l transportida tashiladi.

Yuqori gorizontlardan (760 m va undan yuqori) ustki qatlamni ag’darmalarga va rudalarni qayta yuklash punktlariga tashish avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi.

Karyer bortining shimoli-sharqida 1-sonli tog’ jinslarini qabul qilish uchun ishlab chiqarish uchastkasi mavjud bo’lib, unda to’rtta ag’darmali temir yo‘l tupigi bor, ulardan uchtasi +740 m belgisida joylashgan, to’rtinchi tupik. 770 m belgisidan 30 m balandroqdir<sup>[3]</sup>.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, O’zME davlat ilmiy nashri, T.:2000-2005
2. ↑ Almalikskiy jemchujina, V.Sigedin, Sharq, T.:1999
3. ↑ <https://www.agmk.uz/oz/mining/rudoupravlenie-kalmakyr>